

O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILARNI BILISH FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI MAHORATI

Olimov Temir Xasanovich

Osiyo xalqaro universiteti professori,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Habibova Shoyira Baxtiyorovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchining o‘quvchilar bilish faoliyatini boshqarishdagi mahorati tahlil etiladi. Unda o‘quvchilarning idrok etish darajasi, o‘quv jarayonini demokratik va vatanparvarlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning erkin va faol diqqatini shakllantirishda didaktik mashg‘ulotlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Maqolada o‘qituvchining pedagogik kompetensiyalari, innovatsion yondashuvlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarining o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi muhim ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: kompetensiya, vatanparvarlik, pedagogik kompetentlik, zamonaviy ta’lim, bilish faoliyati.

Аннотация: В данной статье анализируется мастерство учителя в управлении познавательной деятельностью учеников. Рассматриваются вопросы уровня восприятия учащихся, организации учебного процесса на основе демократических и патриотических принципов. Кроме того, даются рекомендации по эффективному использованию дидактических занятий для формирования свободного и активного внимания учащихся. В статье подчеркивается важность педагогической компетентности учителя, инновационного подхода и навыков использования современных образовательных технологий в развитии познавательной деятельности учеников.

Ключевые слова: компетентность, патриотизм, педагогическая компетентность, современное образование, познавательная деятельность.

Annotation: This article analyzes the teacher's mastery in managing students' cognitive activities. It examines students' perception levels and the organization of the learning process based on democratic and patriotic principles. Additionally, recommendations are provided on the effective use of didactic lessons to develop students' free and active attention. The article highlights the importance of the teacher's pedagogical competence, innovative approaches, and skills in using modern educational technologies to enhance students' cognitive activities.

Key words: competence, patriotism, pedagogical competence, modern education, cognitive activity.

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

20-Fevral, 2025-yil

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini samarali boshqarish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ta’sir qiluvchi shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bilish faoliyati boshqaruvi samarali yo‘lga qo‘yilgan taqdirda o‘quvchilar mustaqil fikrlay oladigan, tanqidiy tahlil qiladigan va innovatsion yondashuvlarga ega bo‘lgan shaxslar sifatida shakllanadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbliji shundaki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilgan bilish faoliyati ta’lim sifati va natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish va yangi pedagogik texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.Bilish faoliyatini boshqarishda pedagogik va psixologik omillarning ta’siri juda ahamiyatlidir.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarning bilish faoliyatiga va faollashtirishga qaratilgan innovatsion metodlar shuningdek tajriba-sinov ishlarini olib borish va natijalarni tahlil qilish lozim bo‘lib bunda Tadqiqot uslublari nazariy tahlil – pedagogik va psixologik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar empirik tadqiqot – o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish tajriba-sinov – ayrim sinflarda interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faoliyati faolligi kuzatish, taqqoslash va tahlil – an’anaviy va innovatsion metodlarning samaradorligi taqqoslash.

O‘qituvchining metodik bilimlari, psixologik tayyorgarligi va kommunikativ qobiliyatları o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik mahorat yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularning faolligini oshiradi. Interfaol metodlar esa (guruqli ish, muammoli ta’lim, loyiha usuli) o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlardan foydalangan holda o‘tilgan darslarda o‘quvchilar bilimlarni an’anaviy darslarga qaraganda tezroq o‘zlashtiradi. O‘qituvchi tomonidan berilgan ijobiy rag‘bat o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Mustahkam motivatsiya o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’limda texnologiyalarning o‘rni ortib bormoqda. Elektron darsliklar, video materiallar va onlayn resurslar o‘quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtirishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni bilim olishga undash bilan birga ularning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga ham e’tibor qaratishi lozim. Dars jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar faoliyati va zamonaviy yutuqlar o‘rganilishi o‘quvchilarning milliy g‘ururini oshiradi. Ushbu tavsiyalar o‘qituvchining bilish faoliyatini boshqarish mahoratini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO’NALISHLARI. *FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta’lim*, 1(7).
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO ‘LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta’lim*, 1(7).
8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.